

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
IYUN
№41



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
2-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-2**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-2**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

1. O'rinov Yo'ldoshjon Muxammadovich	
ABU ALI IBN SINO ALLOH HAQIDA	7
2. Холиқова Нилуфархон Турсунхўжа қизи	
ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ОИЛАСИДА ФАРЗАНД ТАРБИЯСИ МАСАЛАСИ	11



ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР

ABU ALI IBN SINO ALLOH HAQIDA

O'rinov Yo'ldoshjon Muxammadovich,

Kamoliddin Behzod nomidagi

Milliy Rassomlik va Dizayn instituti magistranti

1-kurs. Filmning tasviriy yechimi yo'nalishi

Telefon+998999739660

Annotatsiya: Bu maqolada Ibn Sinoning Alloh va inson tushunchalariga aniqlik kiritish maqsad qilingan. Bu maqsadni amalga oshirish uchun Ibn Sino falsafasining Alloh va inson haqidagi mulohazalariga murojaat qilmoqchimiz. Chunki Ibn Sinoning falsafiy metodikasi o'ziga xos fikr yuritish sistemasiga ega. Ibn Sino, mavjudotni - barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, biridan ikkinchisiga o'tishini har tomonlama tekshirish uchun zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat prinsiplarini asos qilib oladi. Ibn Sino Alloh va inson haqidagi tushunchalarini esa bir necha “Ash-Shifo”, “An-Najot”, “Al-Ishorat Vattanbihot”, “Risola fil Kalom”, “Kitob un-Najot”, “Hayy Ibn Yaqzon”, “Risalat'ul-Arshiyye”, “Kitob ash-shifo”, “Ahval'un-Nafs” va yana bir necha asarlarida ilmiy tadqiqotlarini yuritmoqda. Bu maqolada Ibn Sinoning Alloh va inson haqidagi fikrlarini qanday asoslaganligini asarlariga murojat qilgan holda o'rganib chiqmoqchimiz.

Kalit so'zlar: Ibn Sino, Alloh, inson, vujudi vojib, vujudi mumkin, nafs, aql.

KIRISH Ibn Sino dunyoqarashi nafaqat Farobiy asarlari ta'sirida shakllandi, balki u antik Yunon faylasuflari bo'lgan Aristotel, Platon va Plotinusdan ham ta'sirlangan. U ijtimoiy-falsafiy masalalarda Farobiy qarashlarini davom ettirdi, ilg'or falsafiy oqimni yangi tabiiy-ilmiy fikrlar bilan boyitib sistemalashtirdi va yangi bosqichga ko'tardi. Ibn Sino fikricha, falsafaning vazifasiga mavjudotni - barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro munosabati, biridan ikkinchisiga o'tishini har tomonlama tekshirish uchun zaruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat prinsiplariga asos bo'lib xizmat qiladi. Ibn Sino Allohning qanday bir borliq bo'lgan ekanligini “Kitob ash-Shifo”, “An-Najot”, “Risalat'ul Arshiyya” va “Al-Ishorat Vattanbihot” kabi asarlarida mulohaza qilgan [Bozkurt. 2014: b. 67-86]. Ibn Sino asarlarida Allohning ilohiyligini va Insonning nafs, aql, tushunmoq, hayol qurish kabi xususiyatlari aks ettiradigan ko'plab qarashlar mavjud [Durusoy. 2012: b. 19- 170]. Ibn Sino Olam - barcha mavjud narsalarni ikkiga bo'lib qaraydi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud hech narsaga bog'liq bo'lmagan bir butunlikni tashkil etib, u eng irodali, qudratli, dono Allohdir. Qolgan hamma narsalar imkoniy tarzda mavjud bo'lib, zaruriy vujud - Allohdan kelib chiqadi. Vujudi vojib va vujudi mumkin - sabab va oqibat munosabatidadir. Bu jarayon emanatsiya tarzida, ya'ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida asta-sekin amalga oshadi. Shu tartibda imkoniyat shaklidagi mavjud bo'lgan aql, jon (nafs) va jism, ular bilan bog'liq holda osmon sferalari kelib chiqadi, mavjud narsalarga aylanadi. Bular hammasi substansiya (javhar)dir. Maqolada Ibn Sinoning Alloh tasviri uchun keltirgan olam (ulkan borliq) va zaruriy vujud (vujudi vojib) teoriyasiga to'xtalib o'tish bilan birga asosan Alloh va Inson haqida qanday tamoyillar tayin qilganligiga oydinlik kiritmoqchimiz.

Ibn Sinoning Alloh haqidagi g'oyalari Ibn Sino Alloh tushunchasini vujudi vojib, al-Ilah, al-Avval, al-Vohid, al-mabdaul avval, al-Illat ul ula, al-Aql, al-Oshiq kabi so'zlar bilan bayon qilgan [Bozkurt, 2014, s. 68; di pnotta Durusoy va b. 2005, ss. 129-158]. Ibn Sinoning Alloh haqidagi dalillari harakat va sababiylik kabi dalillar bilan birga asosan ham Janubda hamda G'arbda ko'proq ta'sirini ko'rsatgan natijasi va zaruri borliq dalili bo'lib hisoblanadi. Ibn Sino “Risalat'ul Arshiyya” nomli asarida Alloh haqidagi fikrlarini quyidagicha ifodalaydi. 1. Borliqning zaruriy bo'lishi: Zaruri borliq bor bo'lishi lozim. 2. Illatsizlik: Illatsiz bo'lgan borliqning hech qanday bir sababi



yo`q. 3. Bir bo`lishi: Uning o`xshashi yo`q. 4. Bir oddiylilik: murakkab va birlashgan emas. 5. Quddratlilik: ilmi va aqli. Bu prinsipi zaruriy prinsiplar bo`lib bulardan birontasining kam bo`lishi Allohning borligi haqidagi tushunchamizni o`zgartishi mumkin. Alloh olamdagi hamma mavjudotning sababiy borlig`i bo`lib bor bo`lishlarining zaruriy prinsipi bo`lib hisoblanadi. Alloh bu ma`noda o`zining zaruriy prinsipi ekan olamning borlig`i esa mumkindir. Turli manbalarni tadqiq qiladigan bo`lsak aslida bu masalaning asosi antik Greklargacha uzayib borishi mumkin. Faqat antik Greklarda Alloh olamdan munazzah bir borliq emas, aksincha olam bilan bir bo`lgan borliqdir. Shubhasiz bu masalaning asoschisi bu yerda Arisoteldir. Alloh va olam orasidagi bu munosabatni keyinchalik O`rta asr Xristian faylasuflari Prokl, Agustin va Boetsiy qo`lga olgan. Bular ham ko`ptiq antik Grek manbalaridan, xususan, Platon va Plotinus fikrlaridan foydalanib olamning yo`qdan yaratilgan ekanligi haqida o`z tushunchalarini yozib qoldirgan. Allohning va olamning azaliy ekanligi haqida tushuncha Platonning Timey dialogunida ishlangan [Platon. 2001: b.24,25]. Platonning fikriga ko`ra ilohiy me`mor yoki “Demiurg” narsalarni azaliy formalariga ko`ra belgisi, belgisiz moddaga shakl berib vujudga chiqarmoqda. Platonning fikriga ko`ra Alloh yo`qdan yaratguvchi borliq emas bor bo`lgan narsalardan yuzaga keltirguchi me`mor xolos. [Akgsn. 2013: s. 31]. Platonning bu dialogi Xristian cherkovlaridan ta`sirlagan. Xristian tushunchasiga Anselmdan avval Proklos, Augustinus va Boethius vositasi bilan azaliylik fikri kirgan [Pojman vd. 2008: b.222, 224]. Xususan Augustinus va Boethius kabi Xristian dini faylasuflari Xristianlikdagi noto`g`ri bo`lgan Alloh to`g`risidagi tushunchalar bilan faol kurashib Allohning bir va yaratguchi borliq ekanligini ifoda etganlar. Boetsiyning Xristianlikdagi teslis (uchlik) tamoyiliga qarata keltirgan kritikalaridan biri, ilohiy javharning tamalda bir ekanligi haqidagi tezisidir. [Cross. 2012: p. 453] Ilohiy javhar sof, tursimon shakl bo`lib turli o`zgarishlarni o`zida ehtivo qilmaydi. Buning uchun uch zotining bor bo`lishi javharda hech qanday farq bo`lishini kerakli qilmaydi. Boethiusga ko`ra Alloh, yagona aql bo`lib, uning inoyati, boshqacha qilib aytganda ilohiy aqli butun olamni qurshagan. Alloh olamdagi hamma narsani o`zining abadiyligi bilan sayratmoqdadir [Boethius. 2011: p. 353]. Alloh olamdagi bo`lgan va bo`layotgan hamma narsalarni bu sifati bilan bilguvchi borliq. Xristian tushunchasidan keyin esa bu masala bilan tubdan mashg`ul bo`lgan islom faylasuflari orasida Kindi, Farobiy, Ibn Sino va boshqa faylasuflarni aytishimiz mumkin. Xususan Ibn Sino bu masalada avvalda Antik Grek tushunchasidagi olamning Alloh bilan bir ekanligi ko`z qarashlarga, so`ngra esa Xristianlikda va islom olamidagi Mu`tezile kalomchilari va bazi faylasuflarning Grek tushunchasidagi azaliylik tushunchasidan ta`sirlanib o`rtaga qo`ygan fikrlarga qarshi juda ehtiyotli ravishda o`z doktrinasini asoslantirgan. Ibn Sinoning borliq haqidagi tushunchasiga ma`nolari berilib kelgan. Bulardan ba`zilariga qaralganda Ibn Sinoning dunyoqarashining panteistik asosga ega ekanligi aytib o`tganlar ham bor. Misol uchun Xayrullayev “Alloh va borliq bir-biriga zid, bir-birini inkor etuvchi narsalar emas, aksincha, ular bir butun mavjudotni tashkil etadi. Abadiylik Allohga xos. Alloh va tabiat ma`lum pog`onalar yordamida bog`lanadi. Uzun va yaxlit zanjirning bir tomonida yaratuvchi Alloh - zaruriy vujud, ikkinchi chekkasida tabiat yotadi” [Xayrullayev, M. 2012: b. 28]. Sabab va musabbib nuqtai nazaridan olib qaraganda balkim Xayrullayevning mulohazasi asoslantirilishi mumkin, ammo Ibn Sinoning “metafizik” va “Al-Ishorat Vattanbihot”, nomli asarida tilga olgani kabi Allohning borligi biron bir ilmning masalasi bo`lishdan uzoq bo`lib faqatgina maqsadi bo`la olishi mumkin. Bu jihatdan olib qaralganda Ibn Sinoning fikriga ko`ra yagona haqiqat borliq bo`lib metafizik ilmining masalasi borliqdir [Ibn Sino. 2009: b. 253]. Fikrimcha Durusoyning ham ifoda qilgani kabi, Allohning borligini sabab va musabbib pog`onalari bilan olib qaraguvchi bo`lsak oqil sabablar zanjirining abadiy natijasini tushunolmaydi. [Durusoy. 2012: b. 96] Balkim sabab va musabbib pog`onalarini batafsil o`rganib chiqilsa evolyutsiya tabiatda bor ekanligini Ibn Sino dunyo qarashida ko`rishimiz mumkin. Bu esa boshqa bir maqola mavzusi bo`lishi mumkin. Chunki kunimizda Sinan Janan kabi biolog bilim odamlari evolyutsiyaning Islom jihatidan biron bir zarari yo`q ekanligini o`z tushunchalarida asoslantirmoqdadir. Chunki Allohning yaratgan tabiatida bu bor bolgan narsa. Bu esa Islom diniga qarshi narsa emas deb aytadi. Chunki, Alloh yaratgan olamda har bir narsa bu evolyutsiya qonuni asosida harakatga va hayotga egadir. [Ankabut. 20] (Ey, Muhammad,) ayting: “Yerda sayr qilib (Alloh) qanday qilib yaratishni boshlaganini ko`ringlar. So`ngra Alloh (qiyomatda) ikkinchi (marta) paydo qilur. Albatta, Alloh barcha narsaga qodirdir! Bu yerdagi asosiy masala Ibn Sinoning tushunchasida panteistik ko`z qarashning bor bo`lib bo`lmaganligi masalasidir. Ibn Sino ham bir bilm va hamda ilm ustoz faylasuf o`laroq bu masalaga juda ham ehtiyot bilan yaqinlashgan. Ibn Sino o`z tushunchasida aqlidagi borliq konsepsiyasini aql



buning natijasida zotining o'zi zaruriy borliq bo'lgan va ilk sabab bo'lgan, ayni paytda faol bo'lgan va mutloq o'laroq butun borliqlardan oldin kelgan borliq Alloh deb hisoblaydi. Ibn Sinoga ko'ra bu dalil Qur'on'da shunday bayon qilingan: Toki ularga u (Qur'on)ning haq ekanligi aniq ma'lum bo'lgunicha, albatta, Biz ularga atrofdagi va o'z vujudlaridagi alomatlarimizni ko'rsatajkmiz. Axir, (ularga) Parvardigoringizning barcha narsaga guvoh ekani kifoya emasmi?! [Fussilat, 41/53] Borliqning o'zidan harakat qilib Allohning bir va bor bo'lganligiga amin bo'lish bu siddiqlarning yo'li. Buning bilan birga oyatda bayon qilingan “afaq” konsepsiyasi bilan bayon etilgan tashqi dunyodagi narsalardan uning bor bo'lishiga dalil keltirish mumkin bo'lsa ham Ibn Sino bunga ko'p e'tibor bergan emas [Ibn Sina. 1960: b. 110]. Ibn Sino sof aql tanqidi va tahlili bilan Allohning bor ekanligi tushunchasiga ko'p to'xtalgan. Bu jihatdan olib qaraganimizda Ibn Sinoning panteist bir faylasuf ekanligini aytishimiz mumkin emas. U har na sabab Aristotel'da bo'lgani kabi sabablarni “moddiy, sun'iy, g'oyaviy va foyil” sabab o'laroq to'rtga ajratgan bo'lsa ham borliq va mohiyat jihatidan olib qaraganda Aristoteldan bu nuqtai nazarda ajralib turadi. [Ibn Sino. 1960: b. 106]. Durusoyning ifoda qilgani kabi, Allohning borliqda bu farq mumkin bo'lmagani uchun Alloh zaruriy borliqdir (vojibul vujud). Allohning borligi ila mohiyati bir butun bir xil bo'lganligini bildiradi. Shundan sabab Allohning eng loyiq sifati borliqdir. Ammo mohiyati va borlig'i bir-biridan boshqa bo'lgan bor bo'lgan narsalar uchun “borliq” aslo bir sifat bo'lolmaydi. Olamdagi barcha narsalar uchun bor bo'lish boshqa borliqdan kelmoqda [Ibn Sina. 2012: b. 249]. Holbuki Alloh zaruriy borliq bo'lgani uchun hamma mavjudotning ilk sababi ham bo'lib hisoblanadi. Bu jihatdan olib qaraguchi bo'lsak, Allohning aslo jinsi (nasli) yo'q. Bu sabab Alloh uchun “nima?” yo'ki “nega?” savollarni berolmaymiz. Uning borliqi moddiy va ma'no jihatidan bo'linishi mumkin emas. Allohning bir o'xshashi (nidd), qarshisi (ziddi), o'rtog'i (sherigi) va turi (navi) yo'qdir. Uning borligi aql va irfon ila bilinishi mumkin [Ibn Sina. 1960: b. 51]. Borliq va mohiyati bir bolgani uchun haqiqiy borliq (haq) ham Allohning o'zi. Ibn Sino Allohning jinsi va turi bo'lmagani uchun uning javhar emasligini ham asoslantirmoqda. Alloh moddiy va har turli moddiy bo'lgan narsalardan ham munezzehtir (uzoqdir). Bu sabab Ibn Sino tushunchasida panteistik yo'nalishning bor ekanligini bayon etishning bir o'rni yo'q. Faqat Allohning yaratgan narsasida, boshqacha qilib aytganda olamda evolyutsiyani borliq masalasi asoslantirilish mumkin. Ibn Sino, mohiyati va borliqi bir bo'lgan zaruriy borliqning bu xususiyati sababli modda bilan moddaga asoslangan har turli hislatdan munazzax (uzoq) ekanligini, shuning uchun uning sof Aql bo'lishi kerakligini ifoda qilgan. Bu sof Aql o'laroq Alloh Aql va Ma'qul bo'lgan Allohdir. Bu sabablikim, Ibn Sinoning Alloh Tushunchasida panteistik tushuncha yo'q deb aytishimiz mumkin. Chunki, Ibn Sino Alloh ila olamni bir deb hisoblamaydi. Unga ko'ra Alloh zaruriy borliq olam esa yaratilgan materyadir xolos. Ibn Sinoda Spinozadagi kabi panteistik nuqtai nazar yo'q. Ibn Sino Allohning borligini isbot qilishda Esh'ari va Mu'tazila kabi kalomchilarning nuqtai nazarlaridan ta'sirlangani ma'lum [Alper. 2008: b. 63, 64]. Ibn Rushtning fikriga ko'ra zaruriy borliq bilan mumkin borliq orasidagi sababli aloqani falsafa ilmiga bog'lagan inson Ibn Sino bo'lgan. Bu tushunchaga ko'ra har mumkin bo'lgan narsaning bir asosi bo'lishi shart. Bu asos qadim esa Allohdir [Ibn R'sd. 2018: b. 444-445]. Ibn Sinoning fikriga ko'ra mohiyati va borlig'i bir va ayni bo'lgan zaruriy borliq bu xususiyati sababli har qanday materiya va moddaga xos xususiyatdan uzoq bo'lgani uchun sof Aql (al-aqlu'l Mahz). Ibn Sino Allohni o'z o'zini bilgan Aql va Ma'qul bo'lgan borliq deb hisoblaydi. “....Agar bu mohiyat, zotidan esa aql etar va zotining keragi, o'ziga bitishib ajralmagan mujarrad mohiyatlarning hammasini aql etar (tushungay). Bu sabab ila uning o'zi bizzot aql va aql etilgandir. Bu borada aql etgan va aql etilgan bo'lishini na zotda va na e'tiborda ikkilik emasligini tushungan bo'lding....qo'lga kiritilgan maqsad, bo'linmagan yagona bir bo'lgan narsadir. Uning aql etgan va aql etilgan bo'lishining, unda har qandayin kasratning bo'lishiga ehtiyoj bo'lmaganligi o'rta chiqmoqda” [Ibn Sino. 2012: b. 223] Ibn Sinoning bu nuqtai nazarda olam va Alloh o'rtasidagi munosabatni ham o'z tushunchasida har qanday panteistik tushunchadan ajratayotgan ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ibn Sino “En Nejaat” nomli asarida muxoliflarning qarshi fikriga qarata Allohning zamon va zamon ila bo'lgan harakatidan oldin ekanligi haqida juda ham ma'qul fikrlar bayon etgan. Bu fikrlarga qaraganimizda shularni tushunishimiz mumkin. Muxoliflar Allohning olam bilan birlikda harakatda bo'lgan borliq ekanligini bildirganda, Ibn Sino yaratilgan narsaning Alloh ila bir zamonda birlikda ekanligini tushunsak har ikkalasining yartilgan ekanligini tushunishimiz zarur bo'ladi. Faqat Alloh uchun aql etishi ila yaratmasi Ibn Sino tushunchasida bir xil bo'lib Alloh zoti ila zamonni ham yaratgan narsasi bilan birlikda bor qilgan. Bu jihatdan olib qaraganimizda Alloh zamondan ham avval zaruriy bor bo'lgan borliq.



Yaratguvchining yaratgan narsasi ila birlikda bo'lishi uning avval bo'lishiga halal keltirmaydi. Ibn Sinoning bu yerdagi ta'siri juda muhim.

Ibn Sino Platonning nazariyasini va keyinchalik falsafa an'analari quyosh misolida tabiiy zaruriylik fikrini oldinga surgan nazaryalarni ham rad qilgan. Buning sababi Ibn Sinoga ko'ra bunday fikr, Alloh-olam o'rtasidagi bog'ni, o'zini bilgan zaruriy borliqning o'zidan boshqa bo'lgan narsaga bu bilimni kerakli qilgan holatda borliq berishi o'laroq emas, tabiatning zaruriy mexanik ta'siri o'laroq anglashilishiga olib kelmoqda deb aytadi. Bu shakldagi mexanik tushuncha, sabab va natija orasidagi zaruriy aloqaning Allohning (aqli) va bilgisidan kelishi tushunchasini rad qilish bo'lib sanaladi. Bu esa Ibn Sinoning zaruriy borliq tushunchasi bilan batafsil qarama-qarshidir. Ibn Sino tushuncha sistemasida Zot qandayin Zotiy/Zotini bilishdan boshqa bo'lmagani kabi, ilohiy iroda ham bu bilishdan boshqa emas. Chunki, yuqorida aytib o'tilgani kabi Zaruriy Borliqning bilishi va iroda qilishi bir va ayni bo'lib bir biridan ajralgan emasdir [Kutluer. 2002: b. 173]. Ibn Sino tushunchasida kosmik tartibning zaruriy printsi pi ilohiy aqlidir. Iloxiy aql o'zini aql/tushunmog'i olamdagi yaxshilik/go'zallik nizomining borliqining dalili bo'lib hisoblanadi. Chunki, ilohiy aqlning bu printsi pi tomonidan olib qaralganda “jud” ila “vujud” konsepsiyasi o'rtasida ontologik bog' bor. Alloh saxiy borliq bo'lgani uchun olamga bu saxovati sababli bor bo'lishni vujudga keltirmoqda. Bu jihatdan olib qaralganda Ibn Sinoning konsepsiyasiga ko'ra Allohning bir Borliq o'laroq Bergan-borliq o'laroq olam bilan bo'lgan munosabatida uch tomondan ta'kid etilmoqda.

A) taqaddum-ta'xxur (oldin bo'lish- so'ngra kelish);

B] stigma-xajet (Mustaqillik-qaramlik)

C) vujud-imkan (zaruriylik- zaruriy bo'lmaslik) [Kutluer. 2002: b. 177].

Ibn Sinoning bu nazaryasidan harakat qilgan holda uning Alloh va olam orasidagi munosabatni Plotin va keyingi falsafa an'analardan farqli ravishda Islom dinining etiqodlari charchavasida izoh va tahlil qilganligini aytib o'tishimiz mumkin. Ibn Sinoga ko'ra har bir bor bo'lgan narsa qudratli bir borliqqa o'xshagani harakat qiladi. Bu jihatdan olib qaralganda hamma narsa tamalda ilk sababga, ya'ni Allohga oshiq bo'lgani oshikordir. Aristotelning “falak moshiqning harakat ettirishi kabi harakat qildirgan abadiy quvvat bilan harakat etmoqda” so'zi falaklar ham tubanlikka qarata bor bo'lgan harakatning sababining sevgi bo'lganligini o'rta qarmogda. [Ibn Sino. 2012: b. 266]. Falakning sevgisi sababli Allohga itoat qilishi natijasida ilk harakatning yuzaga kelgandir. [Ibn Sino. 2004: b. 408]. Ibn Sinoga ko'ra bu ilk harakatning g'oyasi Allohdir.

Foydalanilgan adabiyotlar: 1. Akgün, Tuncay (2013). Gazzoli va Ibn Rusht'ga K'ora Yaratma, Ankara: Akchag' Nashriyoti. 2. Alper, Ömer, M (2008). Ibn Sîno, İsam Nashriyot uyi. İstanbul, 3. Ankabut: (Qur'oni karim. Abdulaziz Mansur tarjima va sharhi) 4. Atay, H. (1974). Farobiy va Ibn Sinoga Ko'ra Yaratma, Ankara Universiteti İlohiyat Fakulteti Nashriyoti, Dotsentlik Dissertatsiyasi, Ankara. 5. Bozkurt, Ö. (2014). “Ibn Sîno'ning'nin Olloh Tushunchasining Tayangan Asoslari”, Dyonat İlmîy Jurnalı • 50/1, ss. 67-86 6. Boethius, (2011). Falsafaning Taskini. Lotin tilidan tarjima qilingan. Chigdem Durushken, Istanbul: Kabalchi nashriyoti.



ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ОИЛАСИДА ФАРЗАНД ТАРБИЯСИ МАСАЛАСИ

Холиқова Нилуфархон Турсунхўжа қизи
Наманган давлат университети магистранти

Аннотация. Мақолада фарзанд тарбиясида оила ва ундаги миллий қадриятларнинг ўрни тўғрисидаги фикрлар келтирилган. Фарзанд тарбиясида ота-онанинг намунаси тўғрисидаги фикрлар, оиладаги соғлом турмуш тарзининг ижобий таъсири ҳам кўрсатиб ўтилган. Фарзанд тарбиясида миллий қадриятларнинг аҳамияти ҳам батафсил ёритиб берилган.

Калит сўзлар: тарбия, оила, соғлом турмуш тарзи, муомала маданияти, миллий қадриятлар, ота-она намунаси.

Оила-жамиятнинг бир бўлаги, қимматли жавоҳири бўлиши билан бирга, дастлабки тарбия ўчоғи ҳисобланади. Маълумки, инсоннинг тақдири, келажак ҳаётидаги ютуқлари ёки муваффақиятсизлиги, бахтли ёки бахтсизлиги, касб танлаши ҳаттоки кайфияти, унинг оилавий муҳити билан боғлиқдир. Чунки шахс маънавияти, унинг дунёқараши, инсоннинг тасаввур ва эътиқодига алоқадор кўникмалар мажауи асосан оилада шаклланади. Шу билан бирга фарзанд тарбиясига ота-онанинг таъсири ҳам муҳим аҳамиятга эга. Оилада эр-хотинлар муносабатлари масаласига ҳам алоҳида эътибор қаратиш лозим, чунки «эркак оила бошлиғи, аёл эса эркакнинг яхши ва муносиб йўлдоши. Бола тарбиясида яхши ворис ва ёрдамчидир. Фарзанд дастлабки тарбияни оиладан олар экан, уни чақалоқлигидан бошлаш керак. Абдулла Авлониининг фикрича «Алҳосил тарбия бизлар учун ё ҳаёт, ё мамот, ё нажот ё ҳалокат, ё саодат ё фалокат масаласидир». Ота-она мазкур тарбия ўчоғида бош тарбиячи бўлса, фарзандлар, набиралар эса тарбияланувчилардир. Шунинг учун ҳам боланинг қандай инсон бўлиб тарбия топиши, қандай инсон бўлиб камолга етиши кўп жиҳатдан бош тарбиячилар. яъни ота-оналарга боғлиқ. Ота-она намунаси фарзандлар учун кўргазмали дарсдир.

Ота-оналар болалар олдида бир-бирларини ҳурмат қилишлари, бир-бирларига илиқ муносабатда бўлиш билан бирга, фарзандлар олдида овозни кўтариб гапириш ёки уруш-жанжаллар қилмасликлари керак. Чунки бундай ўзаро муносабатлар бола психикасига ҳам салбий таъсир кўрсатади, чунки бу даврда бола овоз тоnidан ҳар қандай муносабатларни фарқлай олади. Айрим ҳолларда болаларни ҳаддан зиёд эркалатиш, уларнинг барча истакларини сўзсиз бажариш, фақат болани севиш ҳам яхши оқибатларга олиб келмайди. Бундай қилиш болада шуҳратпарастлик, ўз хатосини кўра олмаслик, худбинлик каби жиҳатларни шаклланишига олиб келади. Фарзандларимиз келажакда инсонларга шубҳа кўзи билан қарамасликлари уларга ҳеч қачон ёлғон гапирмаслигимиз кераклиги муҳимдир. Ёлғон гапириш хатолигини билиб туриб, уларга ёлғон гапирсак, унинг ички туйғуларига ёмон таъсир кўрсатади ва болада бора-бора ота-онага ишонмаслик, уларга нисбатан ҳурматсизлик шаклланади, негаки, бола учун ҳар доим ота-она идеал ҳисобланади. Шунинг учун фарзанд тарбияси гап билан эмас, балки амаллар билан амалга оширилиши зарур.

Болада инсонпарварлик, Ватанга муҳаббат, иймон-эътиқод, маъсулият, муқаддас аъёнларимизга содиқлик, илмга иштиёқ, маданият кўникмаларини шакллантириб бориш лозимлигини ҳар бир ўзбек оиласидаги ота-она қалбдан ҳис қилиши зарур. Шундай экан, болалар тарбиясининг бош мактаби эр-хотин, ота-онанинг ўзаро муносабатидир. Ота-она учун фарзанд тарбияси муҳим масалалардан бири ҳисобланади. Оила, унинг асрлар мобайнида сақланиб келаятган муқаддас аъёнлари ҳам фарзанд тарбиясида муҳим омилдир. Чунки асрлар оша омон қолиб, бизгача етиб келган миллий қадриятларимиз, маънавий ва маърифий маданиятимиз оиланинг ҳақиқий тарбия маскани эканлигини исботлайди.

Абдурауф Фитратнинг фикрича «фарзандни тўлақонли камол топтириб, вояга етказиш учун, ақлий ва маънавий тарбиядан иборат бўлган кўп таркибли тарбия бериш муҳимдир». [1]. Таълим-тарбия, одоб-ахлоқ болаликдан берилгани маъқул. Оилавий тарбия ижтимоий тарбияга нисбатан болаларнинг руҳий оламига ҳиссиёти ва туйғуларига чуқур таъсир кўрсатади. Фарзанд тарбияси жараёнида бола ҳуқуқларининг камситилмаслиги ҳам талаб этилади. Ҳадиси шарифларда ҳам «фарзандларингизни ҳурмат қилинг ва уларни яхши ҳулқ билан ҳулқлантиринг». [2] деб таъкидланган.

Ўзбек оилаларида бола тарбиясида отанинг ўрни алоҳида белгиланади, айниқса ўғил



болалар тарбиясида. Қиз болалар тарбиясида эса онанинг ўрни бекиёсдир. Она ўз қизига турмушнинг барча паст-баландларини ўргатиши, ҳаттоки, оила, никоҳ сирларини ўғил-қизларимизга ўзигахос тарзда тушунтириб бориш муҳимдир. Ота-оналар ўз вақтида қизлари ва ўғилларига оилавий муносабатлар тўғрисида етарли билим бериб боришлари лозим.

Тарихий маданиятимизнинг илк даврлари ҳақида маълумот берувчи «Авесто» таълимотида ҳам оиладаги муҳит эр ва хотин ўртасидаги муносабатлар, уларнинг бир-бирини тушуниши, меҳр-оқибатлилиги, фарзанд тарбияси билан боғлиқ маъсулиятни англаши жамият тараққиётининг асосий омилларидан бири деб қаралган.[3]. Ўзбек оилаларида ота-онага меҳрли бўлиш масалалари ҳам алоҳида ўрин тутати. Оиладаги фарзандларнинг эл-юртга муносиб бўлиб ўсиши ота ва онага, уларнинг меҳрларига боғлиқ. Агар оиладаги фарзанд тарбиясиз бўлса, бунга фақат ота ва она жавобгардир. Мустақиллигимизнинг дастлабки кунлариданоқ баркамол, соғлом авлод тарбияси давлатимизнинг энг устивор вазифасига айланганди. Фарзанд тарбияси борасида Президент Ш.М.Мирзиёев Тошкент вилоятида бўлиб ўтган йиғилишда: «Ҳокимлар энди таълим ва маънавият билан машғул бўлади», - деб таъкидлади. Бундан кўриниб турибдики, ҳоким, яъни раҳбар ўз ҳудудида маънавиятга, маънавий ҳаётга ҳомий бўлар экан, мазкур соҳада туб бурилишлар бўлиши шубҳасиз. Тўғри, ҳар бир даврда фарзанд тарбияси муҳим аҳамият касб этган. Демак, ҳоким ҳар томонлама етук, узокни кўра билувчи, раҳмдил ва адолатли, шунингдек, халқнинг тарбиясига ҳам маъсул шахсдир.

Маълумки, фарзандлар тарбиясига эътибор қаерда кучли бўлса, ўша жойда ҳуқуқбузарли кжиноятчилик барҳам топади. Аксинча бўлса, маънавият инкирозга юз тутати. Мамлакат раҳбари кўп бора такрорлаётган «ўз болангни ўзинг асра», ҳикмати ота-оналар зиммасига алоҳида маъсулият юклайди. Фарзанд тарбияси-ҳамманинг иши. Халқимизда «Бир болага етти маҳалла ҳам ота, ҳам она», «ўз кўлингиз билан болангизни ҳалокатга ташламанг», «ўз болангиз тарбиясига ўзингиз маъсул, огоҳ бўлинг» каби иборалар бежиз шаклланмаган.

Тарбия кўрган инсонгина бошқаларга ижобий таъсир кўрсатишга қодир бўлади. Демак, тарбия-маъсулият ва жавобгарлик масаласидир. Маъсулият масаласи оилада ҳам асосий негизни ташкил этади. Маъсулият одамнинг гзиммасига юклатилган ишни ўз вақтида, охиригача бажаришдир.

Бугунги кун ёшлари кимдан ўрнак олади, кимга ўхшашни хоҳлайди? Бу саволнинг жавоби фақат оилада. Сир эмас, фарзанд ҳамма одатни ота-онасидан ўрганади. Катталар маъсулиятли бўлса, бу фазилат фарзандларга ҳам ўтади. Шунинг учун ҳам маъсулият болалар онги ва шуурига тарбиянинг илк босқичидан сингдирилиши лозим. Тарбия ва маъсулият муштарак, уйғун, бири бошқасини тўлдириши зарур. Тартиб-интизом маъсулиятни шакллантиради. Шунинг учун тартиб одатга, одат эса бевосита амал қилинадиган мажбуриятига айланиши зарур. Оилада, одоб-ахлоқ ва таълим-тарбияга эътибор қон-қонимизга сингиб кетган бурчимиздир. Оилапарварлик биз учун нечоғлиқ муҳим ҳисобланади. Маҳалладагилар, айниқса, кексалар кўчада нобоп ишқилаётган бола олдидан ҳеч қачон бепарво ўтиб кетмаган. Аксинча, шу заҳотиёқ танбеҳ бериб тўғри йўлга солишган. Оиладаги муҳит ота-она маъсулиятларини хис қилиши билан барқарор бўлади. Халқимизда «Қуш уясида кўргангани қилади» деган мақол бор. Фарзанд тарбиялаётган ота-она ҳар бир ҳаракати, юриш-туриши, муомаласи билан фарзандларига намуна бўлишлари лозим. Чунки бола табиатан ниҳоятда тақлидчан ва кузатувчан бўлади. Шунинг учун унинг атрофидагилари ўзларининг одатлари билан баъзан ўзлари сезмаган ҳолда уларга таъсир қиладилар. Оиладаги кўпол муносабатлар, кўп ёлғон гапириш, ёқимсиз хатти-ҳаракат бола тарбиясига салбий таъсир қилади. Шунинг учун ҳам фарзанд тарбиясида ота-онанинг муомаласи муҳим ўрин тутати. Бола тарбияси ўта мураккаб ва маъсулиятлидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. А.Абдуғофуров. Зокиржон Фуркат.-Т.: фан 1977й.
2. Имом ал Бухорий Ҳадислар тўплами 1-4 жилдлар.-Т.:1990-1995 йй.
3. Маҳкамов Т.Авесто ҳақида –Т.:Шарқ, 2000й.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 2-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000